

FE'L MAYLLARINING O'ZGARISHIGA SABAB BO'LUVCHI YUKLAMALAR TAHLILI

Mamajanova Viktoriya

Alfraganus Universiteti Arab Tili O'Qituvchisi

Ma'lumki, yuklamalar nafaqat ism so'z turkumi e'robiga, balki, fe'l so'z turkumi e'robiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu yuklamalar ta'sirida fe'llar mayllarda o'zgaradi.

Harf so'z turkumining fe'l e'robiga ta'sir qiluvchi omillari ikki qismga bo'linadi. Birinchisi hozirgi-kelasi zamon fe'lini istak maylida turishini talab qiluvchi yuklamalar bo'lib, ular quyidagilardir:

Fe'llarni istak maylida turishini talab qiluvchi yuklamalar to'rtta va ular quyidagilar:

1. **أَنْ** yuklamasi. Bu yuklama xohish, istak, imkoniyat, ruxsat, iltimos kabi munosabatlarni bildiruvchi modal so'zlardan keyin ishlatiladi. masalan: **أُرِيدُ أَنْ تَقُومَ** - Turishingni xohlayman.

2. **أَنْ** bilan kelgan fe'l masdar ma'nosida tushuniladi. Yuqoridagi misolni aslida : **أُرِيدُ** shaklida masdar bilan berish mumkin. Shuning uchun **أَنْ** masdariy yuklama deb nomlanadi²⁰⁵.

وَالثَّانِي: أَنْ، مِثْلُ: «لَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ»، وَهِيَ لِتَأْكِيدِ النَّفْيِ.

3. **لَنْ**. Bu yuklama ish-harakatni kelgusida bo'lishini qat'iy inkor etadi. Masalan: **لَنْ يَخْرُجَ زَيْدٌ** - Zayd umuman chiqmaydi²⁰⁶.

وَالثَّالِثُ: كَيْ، مِثْلُ: «أَسْلَمْتُ كَيْ أَدْخُلَ الْجَنَّةَ».

4. **كَيْ**. Bu yuklama "uchun" ma'nosini ifodalaydi, maqsad ergash gapni bosh gapga bog'laydi²⁰⁷. Masalan: **أَسْلَمْتُ كَيْ أَدْخُلَ الْجَنَّةَ** - Jannatga kirish uchun musulmon bo'ldim. **وَالرَّابِعُ: إِذَنْ، مِثْلُ: «إِذَنْ أَكْرَمَكَ» فِي جَوَابِ مَنْ قَالَ: أَنَا أَتَيْتُكَ غَدًا.**

5. **إِذَنْ**. Bu aslida bog'lovchi. Agar u sabab-oqibat munosabatlarini ifoda etish uchun ishlatiladigan bo'lsa, u o'zidan keyingi fe'lni istak maylida turishini talab qiladi. Masalan: **إِذَنْ أَكْرَمَكَ** - Kechqurun oldingga kelaman, unda senga izzat-ikrom ko'rsataman²⁰⁸.

وَأَعْلَمُ أَنَّ لَفْظَةَ «أَنْ» تَنْصِبُ الْفِعْلَ الْمَضَارِعَ مُقَدَّرَةً بَعْدَ سِتَّةِ أَحْرَفٍ:

- 1 - حَتَّى، مِثْلُ: «مَرَرْتُ حَتَّى أَدْخُلَ الْبَلَدَ».
- 2 - وَلَا مَ الْجَدِّ، مِثْلُ: «مَا كَانَ اللَّهُ لِيُعَذِّبَهُمْ».
- 3 - وَأَوْ الَّتِي فِي مَعْنَى إِلَى أَنْ أَوْ إِلَّا أَنْ، مِثْلُ: «لَأَلْزَمَنَّكَ أَوْ تُعْطِيَنِي حَقِّي».
- 4 - وَوَأَوْ الصَّرْفِ.
- 5 - وَلَا مَ كَيْ.

²⁰⁵ Sayyid Sharif Jurjoniyy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B.41.

²⁰⁶ O'sha asar. –B. 42.

²⁰⁷ Abdujabborov A. Arab tili. –T.: TIU, 2007. –B. 194.

²⁰⁸ Sayyid Sharif Jurjoniyy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B.42.



6 - وَالْقَاءُ الَّتِي تَقَعُ فِي جَوَابِ سِتَّةِ أَشْيَاءَ: أَمْرٍ، وَنَهْيٍ، نَفْيٍ، وَاسْتِفْهَامٍ، وَتَمَنٍّ، وَعَرْضٍ، وَأَمْتِلُهَا مَشْهُورَةٌ.

Ma'lumki, «أَنْ» yuklamasi ma'nosida quyidagi oltita yuklamalar ham ishlatilishi mumkin va albatta ular ham o'zidan keyingi fe'lni istak maylida turishini talab qiladi:

1. حَتَّى, bu yuklama “uchun” ma'nosida ishlatiladi, masalan:
مَرَرْتُ حَتَّى أَدْخُلَ الْبَلَدَ - Shaharga kirish uchun yurdim.
2. لِ - istak yuklamasi, “uchun” ma'nosini ifodalaydi, masalan:
مَا كَانَ اللَّهُ لِيُعَذِّبَهُمْ - Alloh ularni azoblash uchun emas (azoblaguvchi emas).
3. هَؤُلَاءِ أَوْ تُعْطِينِي حَقِّي - Haqqimni bermaguningcha sendan ajralmayman.

4. لِ ma'iy. Misol:

لَا تَنْهَ عَنْ خُلُقٍ وَتَأْتِي مِثْلَهُ.

Ma'nosi: O'zing uni qila turib, birovni undan qaytarma.

5. كَيْ ma'nosidagi لِ. Misol:

أَسْلَمْتُ لِأَدْخُلَ الْجَنَّةَ.

Ma'nosi: Jannatga kirish uchun musulmon bo'ldim.

1. Olti turdagi javoblar tarkibidagi keluvchi “fa”²⁰⁹ - الْقَاءُ.

Har bir tilning o'ziga xos grammatik hodisalari mavjud. Bu hodisalarni ona tili bilan qiyoslab o'rganish ma'lum darajada uni tushunish imkonini beradi. Arab nahviga oid ba'zi asarlarda arab tiligagina xos bo'lgan “javoblar” mavzui yoritilib o'tilganki, ularda “أَنْ” yuklamasi ma'nosida “fa” ham ishlatilishi mumkinligi aytib o'tilgan. “javoblar” termini o'zbek tilidagi shart ergash gapning bosh gapiga to'g'ri kelib, agar ergash gap buyruq, buyruq-inkor, inkor, so'roq, orzu-istak, taklif kabi ma'nolarini bildirib kelsa, uning bosh gapi fe'lga “fa” yuklamasi qo'shiladi va u “أَنْ” yuklamasi kabi fe'lni istak maylida turishini talab qiladi.

Masalan: زُرْنِي فَأَكْرَمَكَ - Meni ziyorat qilsang, seni hurmat qilaman.

لَا تَسْتَيْمِنِي فَأَضْرِبَكَ - Meni haqorat qilma, seni uraman

مَا تَأْتِينَا فَتُحَدِّثْنَا - Huzurimizga kelmadingki, biz bilan suhbatlashsang.

أَيْنَ بَيْتُكَ فَأَرْوِرَكَ - Uying qaerda, seni ziyorat qilaman.

كُشْكِي مَوْلَى مُلْكِي - Koshki mol-mulkim bo'lganida edi, sadaqa qilar edim.

أَلَا تَنْزِلُ بِنَا فَتُصِيبُ خَيْرًا - Biznikiga tushmaysnmi, senga yaxshilik yetadi²¹⁰.

Ma'lum bo'ldiki, arab tilida yuqoridagi oltita yuklama fe'llarni istak maylida turishini talab qiladi va shuning uchun ham bu yuklamalar “تَوَاصَبُ الْمُضَارَعِ” - istak mayli yuklamalari, deb nomlanadi.

Fe'l e'robiga ta'sir qiluvchi harflarning ikkinchisi “الْحُرُوفُ الْجَازِمَةُ لِلْفِعْلِ الْمُضَارَعِ”, ya'ni “Hozirgi-kelasi zamon fe'lini shart maylida turishini talab qiluvchi yuklamalar”dir.

Ma'lumki, arab tilida shart mayli “حَالَةُ الْجَزْمِ” “jazm holati” deb nomlanadi va u nasb holatida turgan fe'lning fatha harakatini sukunga o'zgartirish bilan hosil qilinadi.

²⁰⁹ Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B.43.

²¹⁰ O'sha manba. –B.43.

Albatta fe'lni jazmda turishini talab qiluvchi yuklamalar majud. Hozirgi-kelasi zamon fe'lini shart maylida turishini talab qiluvchi yuklamalar beshtadir va ular quyidagilar:

1. لَمْ yuklamasi. Bu yuklama ish-harakatni sodir bo'lmaganini ta'kidlaydi. Yuklamadan keyin turgan fe'l shart maylida tursada ma'nosi o'tgan zamonni anglatadi. Masalan: لَمْ يَنْصُرْ - Yordam bermadi.

2. لَمَّا yuklamasi ish-harakatni hali sodir bo'lmaganini, ammo sodir bo'lishi kutilayotganini anglatadi. Masalan: لَمَّا يَنْصُرْ - U hali yordam bermadi.

3. لَ buyruq-istak maylini hosil qiluvchi "لَ" yuklamasi. Ma'lumki, buyruq ikkinchi shaxsga beriladi. Uchinchi shaxsga to'g'ridan to'g'ri buyruq berib bo'lmazligi uchun, u biror kimsa orqali yetkaziladi va endi u buyruq-istak mayliga o'zgaradi. Arab tilida bu mayl "لَ" yuklamasi yordamida ifodalanadi, masalan: لِيَنْصُرْ - U yordam bersin.

4. لَا yuklamasi. Buyruq maylining bo'lishsiz formasini hosil qiluvchi "لَا" yuklamasi ham fe'lni jazm holatida turishini talab qiladi, masalan: لَا تَنْصُرْ - Yordam berma.

5. إِنَّ yuklamasi, masalan: إِنَّ تَنْصُرْ أَنْصُرْ - Agar yordam bersang, yorlam beraman²¹¹.
إِعْلَمْ أَنَّ لَفْظَةَ إِنَّ تَدْخُلُ عَلَى الْجُمْلَتَيْنِ، مِثْلُ: «إِنَّ تَضْرِبُ أَضْرِبُ»؛ الْجُمْلَةُ الْأُولَى شَرْطٌ، وَالتَّائِيَةُ جَزَاءٌ وَهِيَ لِلْإِسْتِغْبَالِ. وَإِنْ دَخَلَتْ عَلَى الْمَاضِي، نَحْوُ: «إِنْ ضَرَبْتَ ضَرَبْتُ»، وَهَهُنَا الْجَزْمُ تَعْدِيرِيٌّ، لِأَنَّ الْمَاضِي لَيْسَ بِمُعْرَبٍ.

Ma'lumki إِنَّ yuklamasi shart ergash gapli qo'shma gap tarkibida keladi hamda bosh va ergash gapning fe'lini shart maylida turishini talab qiladi. Masalan:

إِنْ تَضْرِبُ أَضْرِبُ - Agar ursang, men ham uraman.

Ko'rib turganimizdek, avval ergash gap, so'ngra bosh gap turadi va har ikki gapning fe'li kelasi zamonga tegishli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, "إِنَّ" yuklamasidan keyin kelayotgan ergash gapdagi fe'l ham, bosh gapdagi fe'l ham o'tgan zamonda turishi ham mumkin. Lekin bu gapdan anglashilgan shart ma'nosi hozirgi yoki kelasi zamonga tegishli bo'ladi. Masalan: إِنْ ضَرَبْتَ ضَرَبْتُ - Ursang, uraman²¹².

Agar, shart ergash gapdan keyin kelgan bosh gap ismiy jumla, buyruq yoki buyruq-inkor, duo, bo'lishsiz ("أَنْ va "مَا" yuklamalari bilan ifodalangan) gap, o'zgaras so'z yoki "فَ" bog'lovchi yuklamasi qo'shiladi. Masalan: إِنْ تَأْتِنِي فَأَنْتَ مُكْرَمٌ - Agar huzurimga kelsang, sen azizdirsan.

إِنْ رَأَيْتَ زَيْدًا فَآكْرَمُهُ - Zaydni ko'rsang, uni hurmat qilgin!

إِنْ أَتَاكَ عَمْرُو فَلَا تُهْنُهُ - Amr huzuringga kelsa, uni ho'rlamagin

إِنْ أَكْرَمْتَنِي فَجَزَاكَ اللَّهُ خَيْرًا - Meni hurmat qilsang, Alloh seni yaxshilik bilan jazolasin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, arab tilida fe'ldan oldin kelib, uni shart maylida turishini talab qiluvchi yuklamalar mavjud. Bu yuklamalarning ba'zilar fe'lni jazmda turishini talab qilsada, fe'ldan anglashilgan ma'no o'tgan zamonga ishora

²¹¹ الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993. ص. 290.

²¹² الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993. ص. 290.



qiladi. إن yuklamasidan keyin kelayotgan fe'l esa, shart maylida ham, o'tgan zamon shaklida ham turishi mumkin, ammo shartlilik ma'nosi saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayyid Sharif Jurjoniy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. – B.41.
2. Abdujabborov A. Arab tili. –T.: TIU, 2007.–B. 194.
3. الشيخ مصطفى الغلايينى. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993. ص. 290.